BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILINI O'RGATISHNING MAZMUNI VA VAZIFALARI

Yo'ldoshev Nazar O'sarovich

Qarshi innavatsion ta'lim universiteti.

Pedagogika va xorijiy tillar kafedrasi Katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Biz ushbu maqola orqali maktablardagi ona tili o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo'ygan vazifalarini o'rgandikgan. Ona tili o'qitish faninng vazifalar ko'p qirrali bo'lib, ularni bajarishda o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy va siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgandir. Ona tilini o'rgatish natijasida o'quvchilarda o'z fikrini Grammatik jihatdan to'g'ri, uslubiy tarafdan aniq, mazmunli, qoidalarga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalari shakllantirishga yordam beradi. Bu vazifa o'quv predmeti sifatida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlaridan bo'lib, o'quvchini mukammal Shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan umumta'lim vazifalari bilan bog'liq holda amalga oshirilmoqda.

Kalit so'zlar: O'quvchi, o'qituvchi, maktab, tarbiya, ta'lim, mazmun, mohiyat, vazifa, ravon, shaxs, tovush, fonetika, garammatika, so'z, tamoyil, ko'nikma,malaka, g'oya, baxs, qoida.

Аннотация: Благодаря данной статье мы изучили содержание преподавания родного языка в школах и задачи, которые наше государство ставит перед школами на современном этапе развития общества. Задачи науки преподавания родного языка многогранны, и их решение направлено на развитие сознания учащихся, дающее им идейно-политическое, нравственное, эстетическое и трудовое воспитание. В результате обучения родному языку учащиеся смогут выражать свои мысли грамматически правильно, методически ясно, осмысленно, соблюдая правила, уметь правильно писать. Данная задача является одной из уникальных особенностей узбекского языка как предмета изучения и выполняется в связи с общеобразовательными задачами, направленными на формирование учащегося как полноценной личности.

Ключевые слова: Ученик, учитель, школа, воспитание, образование, содержание, сущность, задача, беглость, человек, звук, фонетика, грамматика, слово, принцип, умение, компетентность, г'ойа, бакс, правило.

Abstract: Through this article, we have studied the content of mother tongue teaching in schools and the tasks our state has set for schools at the current stage of society's development. The tasks of

the science of mother tongue teaching are multifaceted, and their fulfillment is aimed at developing the consciousness of students, giving them ideological and political, moral, aesthetic and labor education. As a result of teaching the mother tongue, students will be able to express their thoughts in a grammatically correct, methodologically clear, meaningful way, following the rules, and to be able to spell it correctly. This task is one of the unique features of the Uzbek language as a subject of study, and it is carried out in connection with general education tasks aimed at forming the student as a perfect individual.

Key words: Student, teacher, school, upbringing, education, content, essence, task, fluency, person, sound, phonetics, grammar, word, principle, skill, competence, bax, rule.

Ona tilni o'rganish jarayonida o'quvchilarda boshqa ko'pgina o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan ko'nikmalarni hosil qiladilar hamdaular ustida ish olib boriladilar. Pedagogikada bunday predmetlararo ko'nikraalarga analiz, sintez, abstraktlashtirish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash kabilarni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'nikmalarni o'quvchilarda shakllantirish ustida ishlash ularning o'quv faoliyatida muhim hisoblanadi va ularni faollashtirishga yordam beradi, bilimlarini muvaffaqiyatli egallashlariga imkoniyat beradi. Ona tili fanida o'rganiladigan maxsus ko'nikmalar bilan predmetlararo ko'nikmalar, bir biridan ajratilmagan holda o'quv tarbiyaviy jarayonda rivojlantiriladi. O'rganiladigan bilim va o'quvchilarda hosil qilinadigan maxsus ko'nikmalar maktab dasturlari va davlat ta'lim standartiga moslashtirilgan. Boshlang'ich sinf ona tili darslarini o'rganish tilni ongli egallashga va o'quvchilarda grafik va imloviy malakalarni shakllantirishga zamin bo'ladigan bilimlar ko'satib o'tilgan. Fonetika va grafika bo'limida o'quvchilar so'zning tovush tarkibini, unli va undosh tovushlarning o'ziga xos xususiyatlarini, so'zda tovushning ma'noni farqlashdagi ahamiyatini to'g'ri tushunishga imkon beradi, shuningdek, ularga so'zning tovush va grafik shakli o'rtasidagi nisbat (bog'lanish)ni ongli aniqlash, so'zni to'g'ri yozishga imkoniyati yaratadi. Morfologiya bo'limi ham so'zni ongli o'zlashtirish, uni to'g'ri ishlatish uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari 1-sinfdan boshlab so'z turkumlarini o'rganib boradilar. Boshlang'ich ta'lim sinflari uchun yangi tahrirdagi ,,Davlat ta'lim standarti" ham mustaqillik davridagi tajribalar natijasidir. Unda ko'rsatib o'tilganidek boshlang'ich ta'lim darsliklari va metodik qo'llanmalarining yangi avlodini yaratishda dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o'z o'zini anglash salohiyatini rivojlantiradi va shakllantiradi, aqlan yetuk va sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini to'liq his eta olishga, go'zallik

va nafosatdan zavq olishga, milliy urf-odatlarni o'zida singdirishga va ardoqlashga, ularga rioya qilishga o'rgatadi va yanada yaxshiroq shakillantiradi.Boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yilgan bu kabi maqsadlarni amalga oshirish ta'lim mazmunini aniq belgilab olishni, o'qitishga yangicha yondashuvni biz o'qituvchilardan talab etadi.

Davlat ta’lim standartida ta’kidlanganidek boshlang’ich ta’lim bosqichida davlat va jamiyat tomonidan qo’yiladigan talabda ta’lim sohalari bo’yicha o’zaro muvofiqlik, mutanosiblik, uyg’unlik to’la ta’minlangan bo’lmog’i kerak. Shu jihatdan boshlang’ich ta’lim standartini belgilash ta’lim jarayonining tarkibini va xuddi shu tarkib komponentlarining mazmunini modernizatsiyalash, boshlang’ich ta’lim jarayonida yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyani qo’llash imkonini beradi.Boshlang’ich sinflarda ona tili ta’limi mazmuni ta’limning mazkur bosqichiga qo’yilgan talablardan kelib chiqib belgilanadi.

Ta’lim to’g’risidagi qonunda „Boshlang’ich ta’lim umumiy o’rta ta’lim olish uchun zarur bo’lgan savodxonlik, bilim va ko’nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir», deyiladi. Shundan kelib chiqqan holda „Boshlang’ich sinflarda ona tili ta’limining maqsadi, vazifalari sifatida DTSda quyidagilar belgilab berilgan:

1. O’quvchilarning tafakkur qila olishlar, erkin fikrlay olishlari, o’zgalar fikrini anglay olishlari, o’z fikrini og’zaki va yozma ravishda bayon qila olishlari, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo’la olish kabi ko’nikma va malakalarini rivojlantirish.
2. O’z fikrini ongli, mantiqiy izchillikda rioya qilgan holda to’liq bayon eta olishga o’rgatish.
3. Yozma nutq belgilarini talaffuzda ifodalash, matnni ifodali o’qiy olish ko’nikmasini shakllantirish va rivojlantirish.
4. O’qish sur’atini oshirish, ta’limning shu bosqichi uchun xos bo’lgan sidirg’a o’qishni egallashlariga erishish kabilar belgilab berilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, yosh avlodani barkamol komil inson bo’lib shakillanishlari uchun ona tili fani muhim ahmaiyat kasib etadi. CHunik ona tilini anglamay milliylikni his etmay chinakam inson bo’lish mumkin emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston respublikasi “Ta’lim to‘g’risida”gi Qonuni // https://lex.uz/docs/- 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами.–Т., 2017. Б.38.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi erak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariiga bag‘ishlangan majlisdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
4. **Abdullayeva B.S.Fanlararo aloqadorlik turlari hakida // Uzluksiz ta’lim. -2005.**
5. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi.-T.: Sharq NMAK, 2001. – 400 b.
6. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O‘qituvchi, 1992.–160 b.

7. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). – T.: O‘zbekiston, 1990. – 199 b.
8. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Hadis. Al-Jome’ as-sahih (Ishonarli to‘plam). 4 kitob. 1-kitob. – T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1991. – 550 b.
9. Aliyev A. Ma’naviyat, qadriyat va badiyat (Vatan fidoiylari). – T.: Akademiya, 2000. – 630 b.
10. Almetov N. Pedagogika. Savollar va javoblar. O‘quv qo‘llanma.-Almati: Nurli beyne, 2004.-201 b.
11. Amir Temur o‘gitlari (to‘plam)Tuzuvchilar:B.Ahmedov, A.Aminov.-T.: Navro‘z, 1992. – 64 b.
12. Baxramov A., Sharipov Sh., Nabiyev M. Tabiatshunoslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktblarining 3-sinf uchun darslik. –T.:Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2019-yil. –28 b.
13. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanl.asarlar.– T.: Fan, 1 t. 1968. – 488 b.
14. Ergashev Q. Yoshlarning ma’naviy tarbiyasi. Toshkent: Ma’naviyat. – 1999, 38 b.

WORDLY KNOWLEDGE